



Talaba va o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan "Kitobxon yoshlar ligasi" onlayn kitobxonlik tanlovining NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur nizom talaba va o'quvchilar o'rtasida **"Kitobxon yoshlar ligasi"** onlayn kitobxonlik tanlovini (*keyingi o'rinlarda Tanlov deb yuritiladi*) o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Tanlov Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan har chorakda (*yanvar-mart, aprel-iyun, iyul-sentabr, oktabr-dekabr oylarida*) bir marotaba tashkil etiladi.

1.3. Tanlovda Respublikamizdagi barcha (*davlat, xorijiy, xususiy*) oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar, shuningdek, kasbiy ta'lim muassasalari va akademik litsey o'quvchilari ishtirok etishi mumkin.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

2.1. Tanlovning asosiy maqsadi – talaba va o'quvchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning darsdan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va kitob mutolaasini keng targ'ib qilish, yoshlarni o'z mustaqil fikriga ega, dunyoqarashi keng qilib tarbiyalash va qo'llab-quvvatlashdan iborat.

2.2. Tanlovning vazifasi – talaba va o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, ularning so'z boyligini kengaytirish, ijtimoiy faolligi va millat taqdiriga daxldorligini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; o'zbek ijodkorlari tomonidan yaratilgan hamda jahon bestseller asarlari bilan talaba va o'quvchilarni yaqindan tanishtirib borish, ularda kitobni mutolaa qilish, tahlil qilib, mustaqil fikr bildirishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

kitobning yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida talaba-yoshlarning tasavvurlarini yanada boyitishdan iborat.

III. Tanlovni o'tkazish tartibi

3.1. Tanlovni har chorakda qaysi muddatlarda tashkil etilishi Tashkiliy ishchi guruh tomonidan belgilanadi hamda tanlov e'lonida va tanlov o'tkaziladigan Telegram botda ham ko'rsatiladi.

3.2. Tanlov 2 bosqichda tashkil etiladi:

1-bosqich – saralash, onlayn formatda tashkil etiladi;

2-bosqich – final, har bir hududdagi yetakchi oliy ta'lim muassasasida markazlashgan formatda videokonferensiya orqali tashkil etiladi.

3.3. Mazkur tanlov yakka tartibdagi musobaqa bo'lib, unda qatnashish uchun ishtirokchilar tanlov e'lonida ko'rsatilgan Telegram bot orqali belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari va bot taqdim qiladigan maxsus havolani do'stlariga ulashish orqali tanlov targ'ibotida qatnashib, kamida +5 referal ball yig'ishlari kerak bo'ladi.

3.4. Ishtirokchilarga har bir taklif qilgan do'sti uchun 1 referal ball beriladi. Mazkur shartlarni to'liq bajargan ishtirokchilar tanlovning saralash bosqichida ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi;

3.5. Tanlovda ishtirokchilarga, oldindan 2 ta (yoki 3 ta kichikroq hajmdagi) kitoblar o'qish uchun vazifa qilib beriladi. Kitoblarni o'qish uchun tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 15 kun vaqt belgilanadi. Belgilangan vaqt yakunlangach, vazifa qilib berilgan kitoblar asosida, 3 kun davomida har kuni 50 tadan (jami 150 ta) testlar Telegram bot orqali berib boriladi.

3.6. Har bir test savoli uchun 1 daqiqa vaqt beriladi va ishtirokchi bu vaqt ichida biror javobni belgilamasa, savolga javob berilmadi deb hisoblanadi.

3.7. Yakunda test natijalariga ko'ra eng ko'p ball to'plagan 120 nafar ishtirokchi, shuningdek, tanlov targ'ibotida faol ishtirok etib, eng ko'p referal ball to'plagan 30 nafar ishtirokchi tanlovning final bosqichi yo'llanmasiga ega bo'ladi.

3.8. Yakunda test bo'yicha 120-o'rindagi ishtirokchi bilan teng ball jamg'argan barcha ishtirokchilar final yo'llanmasiga ega bo'ladi.

3.9. Yakunda referal ball bo'yicha 30-o'rindagi ishtirokchi bilan teng referal ball jamg'argan barcha ishtirokchilar final yo'llanmasiga ega bo'ladi.

3.10. Referal ball bo'yicha finalga yo'llanma oladigan ishtirokchilarning natijalari test savollarini ishlashning birinchi kuni soat 20:00 dagi holat bo'yicha inobatga olinadi.

3.11. Tanlov davomida ishtirokchining ikki yoki undan ko'p akkountlardan ishtirok etayotganligi aniqlansa, tanlovdan chetlatiladi va natijasi bekor qilinadi.

IV. Tanlovning final bosqichini o'tkazish tartibi

4.1. Finalda Toshkent shahridagi ishtirokchilar Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi binosiga, viloyatdagi ishtirokchilar esa hududdagi yetakchi oliy ta'lim muassasasiga tashrif buyuradilar.

4.2. Ishtirokchilar tanlovga ro'yxatdan o'tayotganda istiqomat qilayotgan hududini belgilaydilar va final bosqichida aynan o'sha hududdagi belgilangan manzilga pasport yoki ID kartasi bilan borib, final bosqichi testini ishlashi kerak bo'ladi.

4.3. Ishtirokchilarga final bosqichining o‘tkazilish vaqti va har bir viloyatdagi manzil lokatsiyasi test boshlanishidan kamida 2 kun oldin ma’lum qilinadi.

4.4. Belgilangan vaqtda belgilangan manzilga kelmagan yoki kechikib kelgan ishtirokchilar final bosqichida ishtirok etmadi deb hisoblanadi va natijalari bekor qilinadi.

4.5. Final bosqichida saralash bosqichdagi to‘plangan ballar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va ishtirokchilarning har biri teng imkoniyatga ega bo‘ladi.

4.6. Finalda ishtirokchilar mas’ul kuzatuvchi nazorati ostida o‘z telefonlari orqali xuddi saralash bosqichida bo‘lgani kabi tanlov e’lonida vazifa qilib berilgan kitoblar bo‘yicha tuzilgan jami 50 ta test savollarini ishlaydilar va har bir testga javob berish uchun 40 soniyadan vaqt belgilanadi.

4.7. Tanlovning yakuniy natijalari final bosqichi yakunlanishi bilanoq ishtirokchilarga ma’lum qilinadi.

4.8. Yakunda test natijalariga ko‘ra final bosqichi g‘oliblari aniqlanadi. Test bo‘yicha ishtirokchilarning ballari teng bo‘lib qolgan taqdirda, g‘olib aniqlangunga qadar qo‘shimcha savollar beriladi.

4.9. Qo‘shimcha savollar vazifa qilib berilgan kitoblar hamda kitob mualliflari haqida bo‘lishi mumkin.

V. Apellyatsiya berish tartibi

5.1. Ishtirokchilar tanlovning final bosqichi bo‘yicha natijalar e’lon qilingach, 1 soat muddat ichida savollar yuzasidan apellyatsiya berish huquqiga ega. Belgilangan muddat yakunlangach, e’tiroz va shikoyatlar qabul qilinmaydi.

5.2. Apellyatsiya berish uchun ishtirokchi Tashkiliy ishchi guruhga ariza bilan murojaat qiladi. Arizada apellyatsiya berilayotgan savolning qisqacha mazmuni yoki tartib raqami ko‘rsatilishi shart.

5.3. Agar ishtirokchining apellyatsiya shikoyati o‘rinli deb topilsa, arizada ko‘rsatilgan savol uchun ishtirokchiga qo‘shimcha ball qo‘shilishi mumkin.

5.4. Tashkiliy ishchi guruh berilgan apellyatsiya arizasining yakuniy natijasi bo‘yicha barcha ishtirokchilarning oldida izoh berish majburiyatini oladi.

5.5. Tanlovning final bosqichida ishtirok etmagan, uchinchi shaxslar tomonidan apellyatsiya shikoyatlari qabul qilinmaydi.

VI. Tanlovning “Eng faol tanlov targ‘ibotchisi” nominatsiyasi g‘oliblarini aniqlash tartibi

6.1. Tanlov e’lon qilingan kundan boshlab, test savollarini ishlashning 1-kuni soat 20:00 gacha bo‘lgan muddatda tanlov targ‘ibotida faol ishtirok etib, eng yuqori referal ball to‘plagan 6 nafar ishtirokchi tanlovning “Eng faol targ‘ibotchi” nominatsiyasi g‘olibi deb topiladi.

6.2. Yakunda “Eng faol targ‘ibotchi” nominatsiyasi g‘oliblarining referal ballari teng bo‘lib qolgan taqdirda, ularning test bo‘yicha to‘plagan ballariga qaraladi. Kim test savollaridan ko‘proq ball to‘plagan bo‘lsa, yuqori o‘rinda deb hisoblanadi.

VII. Tanlov g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash

7.1. Tanlovda yuqori o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan quyidagi tartibda taqdirlanadi:

- 1-o‘rin 1 nafar – **Noutbuk (core i5) va I darajali diplom;**
- 2-o‘rin 2 nafar – **Smart televizor (43 dyumm) va II darajali diplom;**
- 3-o‘rin 3 nafar – **Planshet (6/128) va III darajali diplom;**
- 4-o‘rin 4 nafar – **Smartfon (6/128) va faxriy yorliq;**
- 5-o‘rin 5 nafar – **Smartfon (4/64) va faxriy yorliq.**

6.2. “Eng faol targ‘ibotchi” nominatsiyasi g‘oliblari quyidagicha taqdirlanadi:

- 1-o‘rin 1 nafar – **Planshet (6/128) va I darajali diplom;**
- 2-o‘rin 2 nafar – **Smartfon (6/128) va II darajali diplom;**
- 3-o‘rin 3 nafar – **Smartfon (4/64) va III darajali diplom.**

7.3. Tanlovning saralash bosqichida test hamda final bosqichida ishtirok etib, yuqori o‘rinlarni egallay olmagan ishlagan barcha ishtirokchilar natijasidan qat‘iy nazar Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan elektron sertifikat bilan taqdirlanadi.

7.4. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazishda hamkor bo‘lgan tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar o‘z hisoblaridan tanlov g‘oliblarini qo‘shimcha ravishda moddiy rag‘batlantirishlari mumkin.

7.5. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etgan tashkilotchi (Respublika Tashkiliy ishchi guruhi) mas‘ul xodimlari asosiy ish joyidan mehnatga haq to‘lashning 10 barobari miqdorigacha rag‘batlantiriladi.

7.6. Tanlovning bir mavsumida g‘olib va sovrindor bo‘lgan 21 nafar ishtirokchilar tanlovning keyingi mavsumida ishtirok etishi mumkin emas. Ular faqat navbatdagi mavsum o‘tib bo‘lganidan so‘ng tanlovda qayta ishtirok eta oladi.

VII. Yakuniy qoidalar

8.1. Tanlov Tashkiliy ishchi guruhi ishtirokchilarning talab va takliflarini inobatga olgan holda “Kitobxon yoshlar ligasi” onlayn kitobxonlik tanlovining nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega.

8.2. Tanlov davomida nizomda ko‘rsatilmagan fors-major holatlar yuzaga kelsa, Tashkiliy ishchi guruh tomonidan yakuniy qaror qabul qilinadi.